

Laboratoriya STENDI sotib olish uchun konkurs

Laboratoriya STENDI sotib olish uchun konkurs

Tashkilot/Institut/Kompaniya: Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti (TIQXMMI)

Loyiha nomi: Xorijiy universitetlardagi innovatsion yechimlarni joriy etish orqali qishloq xo'jaligida muhandis kadrlarni tayyorlash dasturlarini takomillashtirish

Loyiha ID: AIF 2/16

DIZEL DVIGATELLARINING COMMON RAIL YONILG'I BILAN TAMINLASH TIZIMI INJEKTORLARINI TEKSHIRISH UCHUN LABORATORIYA STENDI YETKAZIB BERISH

TIQXMMI Jahon bankinging O'zbekiston Respublikasida Oliy talimni modernizatsiya qilish loyihasi doirasida Akademik innovatsiyalar fondining "Xorijiy universitetlardagi innovatsion yechimlarni joriy etish orqali qishloq xo'jaligida muhandis kadrlarni tayyorlash dasturlarini takomillashtirish" loyihasini amalga oshirmoqda va loyiha mablag'larining malum bir qismi laboratoriya qurilma va jihozlari sotib olish uchun sarflanishi rejalashtirilgan.

TIQXMMI vakolatli tashkilotlar/kompaniyalarni quyidagi laboratoriya stendini yetkazib berish bo'yicha konkursda qatnashish uchun qiziqishlarini bildirishga taklif qiladi:

Nomi	Soni	Vazifasi
Common Rail yonilg'i tizimi injektorlarini tekshirish stendi	1	Stend Bosch, Denso, Delphi, Siemens, Cummins, Caterpillar, AZPI kompaniyalari tomonidan ishlab chiqarilgan dizellarda foydalaniladigan Common Rail yonilg'i tizimlarining yuqori bosimli injektorlarini sinovdan o'tkazish bo'yicha laboratoriya ishlarida foydalanish uchun mo'ljallangan. Bu stend yordamida yuqori bosimli yonilg'i nasosi aylanish tezligi, yonilg'i harorati va bosimini ko'rish, belgilangan parametrlarni, shuningdek injektorni sikllik yonilg'i uzatish miqdorini o'lchash, va keyin korreksiyalash kodini traktor yoki avtomobil dvigateli boshqarish blogiga yozish uchun belgilash (Delphi C2I C3i, Denso QR, Bosch IMA ISA, Siemens IIC) amalga oshiriladi.

Tovarlarni xarid qilish va nomoddiy xizmatlar Jahon banki Qo'llanmalari qoidalariga muvofiq amalga oshiriladi: XTTB kreditlari va Jahon banki qarzdorlari tomonidan XTA kreditlari va grantlari bo'yicha tovarlar, ishlar va nomoddiy xizmatlar xarid qilish (2011 yil yanvarda qabul qilingan), 2014 yil iyul oyida qayta ko'rib chiqilgan (Xaridlar bo'yicha qo'llanma) va konkursda vakolatli mamlakatlarning har qanday ishtirokchilari ishtirok etishi mumkin.

Qiziqish bildiradigan tashkilotlar / kompaniyalar quyida keltirilgan elektron pochta orqali qo'shimcha malumotlar (stend uchun texnik talablar (spetsifikatsiya), stendni yetkazib berish shartlari va boshqalar) olishi mumkin. Takliflarni shakllantirish va yetkazib berish muddati 2021 yil 21 aprelgacha, 15 kun.

Tijorat takliflari taklif berilgan kundan boshlab 90 kun davomida amal qilishi kerak. Konkursda qatnashadigan xorijiy ishtirokchilar stendni CIP-Tashkent ga yetkazib berish xarajatlarini ham etiborga olishlari kerak.

Manzil: K.Niyazov ko'chasi 39, Toshkent, 100000 O'zbekiston

Telefon: +998 71 237 2534

Elektron pochta: aif-agr-eng@tiame.uz